

DEONTOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Abdulxayeva M B

A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada deontologik yondashuv asosida maktab direktorlarining boshqaruv madaniyatini shakllantirish masalalari nazariy jihatlarini muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *Yondashuv, deontologiya, madaniyat, maktab, direktor, boshqaruv, madaniyat, yondashuv, faoliyat, tuzilma, komponent, tarbiya, tizim, kompetentsiya, imkoniyat, faoliyat.*

ФОРМИРОВАНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДИРЕКТОРОВ ШКОЛ НА ОСНОВЕ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Абдулхаева М Б

Независимый исследователь Национального научно-исследовательского института повышения квалификации и подготовки педагогов по новым методам им. А. Авлони

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические аспекты вопросов формирования управленческой культуры директоров школ на основе деонтологического подхода.*

Ключевые слова: *Подход, деонтология, культура, школа, директор, управление, культура, подход, деятельность, структура, компонент, воспитание, система, компетентность, возможность, деятельность.*

DEVELOPING A MANAGEMENT CULTURE FOR SCHOOL PRINCIPALS BASED ON A DEONTOLOGICAL APPROACH

M.B. Abdulkhayeva

Independent Researcher, A. Avloni National Research Institute for Advanced Training and Teacher Training in New Methods

Abstract: *The state is examining the theoretical aspects of developing a management culture for school principals based on a deontological approach.*

Keywords: *Approach, deontology, culture, school, principal, management, culture, approach, activity, structure, component, education, system, competence, feasibility, activity.*

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Ishimizni to‘g‘ri tashkil etish, uning samaradorligini ta‘minlash, butun boshqaruv tizimi faoliyatini sifat jihatidan zamon talablari darajasiga ko‘tarishni bugun hayotning o‘zi talab etmoqda.

Biroq, yo‘limizda qanday to‘siq va qiyinchiliklar, keskin va dolzarb muammolarga duch kelsak ham, shoshma-shosharlik bilan, pala-partish qarorlar qabul qilishga, yaxshi o‘ylab ko‘rilmagan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yishga haqqimiz yo‘q”³⁰ deya ta‘kidlashi, zamonaviy har bir rahbardan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Zero, rahbar boshqaruvni amalga oshirishda bosh bo‘g‘in hisoblanib, boshqaruvning tashkil etilishi, samaradorlikni oshirish ko‘p jihatdan rahbar egallagan bilim, malaka, tajriba qolaversa, uning shaxsiy hislatlari va boshqaruv uslubiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Deontologik yondashuv asosida maktab direktorlarining boshqaruv madaniyatini shakllantirishda pedagogik omillar boshqaruvda axloqiy, burchga asoslangan, halollik va mas‘uliyatga tayanuvchi yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Boshqaruvda asosiy pedagogik omillar quyidagilardir:

1. Axloqiy-tarbiyaviy muhit.

Maktabda odob-axloq, burch, halollik va mas‘uliyatga asoslangan tarbiyaviy muhitning mavjudligi orqali direktorning qarorlarida adolatli va mas‘uliyatli bo‘lishini talab qiladi. Maktab direktorining deontologik yondashuv asosida ta‘lim-tarbiya jarayonida axloqiy-me‘yorlarga asoslangan maktab muhitida rahbarlikni talab qiladi.

2. Direktorning pedagogik yetakchiligi.

Direktorning o‘qituvchilarga axloqiy jihatdan namunali bo‘lishi, pedagogik jamoada ijobiy psixologik muhitni yarata olishi boshqaruv madaniyatining shakllanishiga asos bo‘ladi. Direktorning pedagogik bilim va mahorati boshqaruv sifatiga bevosita ta‘sir qiladi. Yetakchi rahbar o‘qituvchilarning faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

3. Kasbiy va axloqiy namuna.

Direktorning o‘zi namunali xulq, axloq va madaniyat egasi bo‘lishi orqali jamoada ijobiy muhitni shakllantiradi. Bu o‘qituvchilarda unga ergashish va hurmatni oshiradi.

4. Metodik yordam va qo‘llab-quvvatlash.

O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, kasbiy o‘shishiga rahbarlik qilish orqali orqali o‘qituvchilarning mas‘uliyati va kasbiy madaniyati ortadi.

5. Ochiq muloqot va fikr almashinuvi.

Direktor va o‘qituvchilar o‘rtasida erkin va ochiq muloqot mavjud bo‘lishi orqali boshqaruvda shaffoflik va ishonchni mustahkamlaydi.

5. Adolatli baholash va rag‘batlantirish.

Maktab direktorining o‘qituvchilar faoliyatini adolatli baholash, mehnatini qadrlash orqali ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. O‘qituvchilarga nisbatan

³⁰ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqim bilan birga quramiz. // ‘Xalq so‘zi’, 2016 yil 14 dekabr.

tanlov, baholash yoki mukofotlashda shaffoflik va barchaga teng yondashish, adolatli pedagogik qarorlar qabul qilish maktab direktorning deontologik boshqaruv madaniyatini belgilaydi.

7. Kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.

O'qituvchilarning doimiy o'sishiga sharoit yaratish (seminarlar, malaka oshirish) orqali rahbar ularning mas'uliyat hissini oshiradi, bu esa umumiy boshqaruv madaniyatiga ta'sir qiladi.

8. O'qituvchilarning deontologik kompetensiyasini qo'llab-quvvatlash.

Maktab direktorining o'qituvchilarga metodik, axloqiy va kasbiy maslahatlar berishi, o'qituvchilarning kasbiy odob-axloq qoidalariga amal qilishi orqali o'qituvchilarning deontologik kompetensiyasi shakllanadi.

Bu omillar maktabda maktab direktorining boshqaruv madaniyatini yuksaltirish, insonparvar va adolatli muhit yaratish uchun muhimdir. Pedagogik omillar maktab direktorining boshqaruv madaniyatiga asos bo'luvchi ichki kuchlardir. Deontologik yondashuvda ushbu omillar orqali rahbar: axloqiy va madaniy muhitni shakllantiradi, mas'uliyatli va adolatli boshqaruv olib boradi, jamoada kasbiy va ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotimiz davomida biz maktab direktorining deontologik yondashuv asosida boshqaruv madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni ham tahlil qildik. Deontologik yondashuv asosida maktab direktorlarining boshqaruv madaniyatini shakllantirishda psixologik omillar rahbar shaxsining ichki ruhiy holati, hissiy barqarorligi, empatiyasi, kommunikativ qobiliyati va insonparvarlik prinsiplariga tayangan boshqaruv usullarini nazarda tutadi. Psixologik omillar: emotsional intellekt, psixologik barqarorlik, kommunikativ kompetensiya, rahbarlik xarakteri va shaxsiy fazilatlar, ichki motivatsiya, ziddiyatlarni boshqarish.

Quyida deontologik yondashuv asosida maktab direktorlarining boshqaruv madaniyatini shakllantirishda psixologik omillar bo'yicha tahlilijadval (1- jadvalga qarang). 1- jadval

№	Psixologik omil	Mazmuni	Deontologik yondashuvdagi ifodasi	Boshqaruv madaniyatiga ta'siri
1.	Emotsional intellekt	O'z va boshqalar hissiyatini anglash va boshqarish qobiliyati	Empatiya, hurmat, axloqiy muomala	Ruhiy barqarorlik va ishonchli rahbarlik
2.	Psixologik barqarorlik	Stressli holatlarda muvozanatni saqlash, bosimga bardosh berish	Mas'uliyatni barqarorlik bilan bajarish	Qarorlar izchilligi va ishonchlilik
3.	Kommunikativ kompetensiya	Madaniyatli, ochiq va tushunarli muloqot yuritish	Ochiqlik, halollik, odobli so'zlashuv	Jamoada ijobiy muhit va sog'lom muloqot
4.	Shaxsiy fazilatlar	Qat'iyat, sabr, xolislik, mas'uliyat	Axloqiy yetuklik, kasbiy burchga sodiqlik	Etakchilik qobiliyatini oshiradi

5.	Ichki motivatsiya	Shaxsiy manfaat emas, kasbiy burchga asoslangan harakat	Fidoyilik, xizmatga tayyorlik	Etik boshqaruv va ishonchli rahbarlik
----	-------------------	---------------------------------------------------------	-------------------------------	---------------------------------------

Deontologik yondashuv asosida maktab direktorlarining boshqaruv madaniyatini shakllantirish bo'yicha nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, rahbarning kasbiy faoliyati faqat tashkiliy va boshqaruv ko'nikmalariga emas, balki axloqiy qadriyatlar, kasbiy burch, halollik, adolat va mas'uliyat tamoyillariga ham chuqur asoslangan bo'lishi zarur.

Birinchidan, nazariy manbalar tahlili deontologik yondashuvni – rahbar shaxsining axloqiy burchini anglash, kasbiy etikaga rioya qilish, hamda jamoada adolatli muhit yaratish tamoyili sifatida ko'rsatadi. Bunda maktab direktori etika me'yorlariga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi lider sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, boshqaruv madaniyatini shakllantirishda pedagogik, psixologik va didaktik omillar muhim rol o'ynaydi. Pedagogik yondashuv rahbarning kasbiy yetakchiligini, psixologik omillar esa rahbarning hissiy barqarorligi, empatiya va muloqot madaniyatini ta'minlaydi. Didaktik omillar esa o'quv jarayoniga axloqiy va metodik mas'uliyat bilan yondashish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Uchinchidan, nazariy asoslar shuni ko'rsatadiki, deontologik yondashuv asosida shakllangan boshqaruv madaniyati quyidagilarni ta'minlaydi: maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilaydi; o'qituvchi va o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi; ahbarning shaxsiy namunasi orqali jamoada mas'uliyatli madaniyatni rivojlantiradi.

To'rtinchidan, ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, deontologik kompetensiyalar (burchga sadoqat, adolatli fikrlash, etik muomala, axloqiy refleksiya) maktab rahbari faoliyatining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu kompetensiyalar rahbarlik faoliyatida nafaqat natijadorlikni, balki insoniylik va ishonch tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, nazariy tahlil asosida deontologik yondashuv – bu maktab direktorining boshqaruv madaniyatini shakllantirishda axloqiy poydevor bo'lib xizmat qiluvchi muhim metodologik asos hisoblanadi. Bu yondashuv ta'lim tizimida adolatli, mas'uliyatli va etuk rahbarlik madaniyatini shakllantirishning zamonaviy talabi sifatida qaralmoqda.

Deontologik yondashuv asosida maktab direktorining boshqaruv madaniyatini shakllantirish jarayonida pedagogik, psixologik va didaktik omillar o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ular rahbarning kasbiy faoliyatini axloqiy, madaniy va ilmiy asosda olib borishini ta'minlaydi.

Pedagogik omillar – direktorning kasbiy yetukligi, tarbiyaviy pozitsiyasi, shaxsiy namunasi, adolatli baholash tamoyillari va jamoada pedagogik ishonch muhitini shakllantirish qobiliyatini belgilaydi. Pedagogik omillar deontologik yondashuvda rahbarlikning axloqiy asosini mustahkamlaydi.

Psixologik omillar – rahbarning hissiy barqarorligi, empatiya, muloqot madaniyati, ijtimoiy adolat hissi, konfliktni boshqarish ko‘nikmalari kabi sifatlar orqali boshqaruvda insoniylik, mulohazakorlik va ehtiyotkorlikni shakllantiradi. Bu omillar jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit yaratilishiga xizmat qiladi.

Didaktik omillar – rahbarning ta‘lim mazmunini anglash, metodik jarayonni boshqarish, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni axloqiy tamoyillar asosida nazorat qilishga bo‘lgan yondashuvini bildiradi. Bu orqali direktor nafaqat tashkilotchi, balki ta‘lim sifatini ta‘minlovchi mas‘ul yetakchiga aylanadi.

Deontologik yondashuv asosidagi boshqaruv madaniyati pedagogik etuklik, psixologik barqarorlik va didaktik bilimlar asosida shakllanadi. Ushbu omillar uyg‘unlashganda rahbar faoliyati axloqiy tamoyillarga tayanadi, jamoada adolat, ishonch va madaniyat muhitini qaror toptiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ta‘lim tizimida barqarorlik va sifatlilikka erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.